

**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.31/2025.27.12.GM.02.01.M
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“H.M. ABDULLAEV NOMIDAGI GEOLOGIYA
VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM**

XOLIKOV AZIMJON BABAMURATOVICH

**PLATINA GURUHI METALLARINING MA’DAN FORMATSION TURLARI,
QIDIRISH ME’ZONLARI VA MINERAL-XOMASHYO BAZASINI
RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI
(O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI)**

**04.00.02 – Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi,
ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo.**

**Geologiya-mineralogiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Fan doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi (DSc)
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Content of abstract dissertation of doctor of science (DSc)**

Xolikov Azimjon Babamuratovich

Platina guruhi metallarining ma'dan formatsion turlari, qidirish me'zonlari va mineral-xomashyo bazasini rivojlantirishning istiqbollari (O'zbekiston Respublikasi)..... 3

Холиков Азимжон Бабамуратович

Рудно-формационные типы, критерии поисков и перспективы развития
минерально-сырьевой базы металлов платиновой группы (Республика
Узбекистан)..... 29

Kholikov Azimjon Babamuratovich

Ore-formation types, search criteria and prospects for the development of the mineral
resource base of platinum group metals (Republic of Uzbekistan)..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 61

**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.31/2025.27.12.GM.02.01.M
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“H.M. ABDULLAEV NOMIDAGI GEOLOGIYA
VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM**

XOLIKOV AZIMJON BABAMURATOVICH

**PLATINA GURUHI METALLARINING MA’DAN FORMATSION TURLARI,
QIDIRISH ME’ZONLARI VA MINERAL-XOMASHYO BAZASINI
RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI
(O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI)**

**04.00.02 – Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi,
ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo.**

**Geologiya-mineralogiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/GM65 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi “H.M.Abdullaev nomidagi Geologiya va geofizika instituti” davlat muassasasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mridm.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Pirnazarov Majid Maxkamovich

geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamarozikov Usmonjon Dovronovich

geologiya-mineralogiya fanlari doktori

Antonov Aleksandr Yevgen’evich

geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Axmedov Nurmuxammad

geologiya-mineralogiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ

Dissertatsiya himoyasi “Mineral resurslar instituti” DM huzuridagi DSc.31/2025.27.12.GM.02.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 12 fevral soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Tel.: (99871) 209-08-93; e-mail: info@mridm.uz, gpnimr@exat.uz.

Dissertatsiya bilan “Mineral resurslar instituti” DMning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3485 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100041, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64 uy. Tel.: (99871) 209-08-93.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 29 yanvar kuni tarqatildi.

(2025 yil 18 “ 12 ” 29 raqamli reestr bayonnomasi).



M.U. Isoqov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d.

O‘A. Xafizov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
Ilmiy kotibi, g.-m.f. falsafa doktori (PhD)

M.K. Turapov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, g.-m.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon amaliyotida platinoidlar yoki platina guruhi metallarining (PGM) ma'dan formatsion turlari, ularni qidirish me'zonlari va mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish dolzabrligicha saqlanib qolmoqda. PGM – sayyoramizdagi eng kam tarqalgan va eng qimmat metallardan biri bo'lib, noyob fizik-kimyoviy xususiyatlari tufayli ularni qo'llash sohalari yil sayin kengayib bormoqda.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har xil turdag'i platinametall mineralizatsiyasining genezisi, ularning potensial platinadorligini baholash, platinoidlarning yangi manbalarini aniqlash, PGMni bashorat qilishda yangi innovatsion yondashuvlardan foydalanish (shu jumladan ularni aniqlash uchun zamonaviy yuqori aniqlikdagi analitik asboblar va plitalar tektonikasi va chuqur geodinamikaning yangi nazariy pozitsiyalari), ularni izlashning bashorat mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikada PGM izlashning mintaqaviy va mahalliy mezonlarini ishlab chiqish, ularni ma'dan-formatsion turlash va istiqbollarini baholash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada, oltin, kumush va boshqa metallar bilan birga uchrovchi yo'l dosh elementlar sifatida PGMga istiqbolli maydonlar ajratilgan (Kospaktov, Tebinbuloq, Kosmanachi va boshqalar). O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ".....iqtisodiyot uchun zarur mineral xom ashyo bazasini kengaytirish....."¹ vazifalari belgilab berilgan. Bu borada xromit, sulfidli-mis-nikel, titanomagnetitli va boshqa ma'danlashuv bilan bog'liq bo'lgan asos va o'ta asos magmatik jinslar bilan bog'liq an'anaviy sanoat turi, shuningdek, qora slanes va boshqa turdag'i murakkab konlarda noan'anaviy minerallashuv turlari hisobiga platinoidlarning mineral xomashyo bazasini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PQ-158-son, 2024-yil 20-maydagi "Sanoat va ishlab chiqarishni tashkil etish uchun muhim foydali qazilmalar mineral-xomashyo bazasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-182-son, 2025-yil 28-martdagi "2025-2026-yillarda sanoat uchun muhim minerallar xomashyosi bazasini kengaytirish va ishlab chiqarishni jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-128-sonli Qarorlarida, shuningdek ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda, nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishidagi tadqiqotlarning natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishining VIII – "Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF – 60-son Farmoni.

mineral xomashyolarni qayta ishlash)" ustuvor yo'nalishlari talablariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.²

Ma'danlarning hosil bo'lishini, joylashish qonuniyatlarini, shu jumladan moddiy tarkibi, manbai, platinoidlarning hosil bo'lish shartlari, konsentratsiyasi va lokalizatsiyasini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, PGMning an'anaviy va noan'anaviy minerallashuv turlarini prognozlash va izlash mezonlari dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va ilmiy o'quv dargohlarida olib borilmoqda, jumladan Mineralogical Association of Canada, MTA (Turkiya), Centre for Russian and Central EuroAsian Mineral Studies (CERCAMS), Sian geologik markazi (Sian, Xitoy), Department of Earth Sciences of the University of Adelaide (Avstraliya), Institut ftir Geowissenschaften Technische Universitet Bergakademie Freiberg (Frayberg, GFR), Rossiya Fanlar Akademiyasining ruda konlari geologiyasi, petrografiya, mineralogiya va geokimyo instituti (Rossiya), Mineral resurslar instituti, H.M. Abdullaev nomidagi Geologiya va geofizika instituti, Toshkent Davlat texnika universiteti (O'zbekiston).

Rangli va qimmatbaho metallar Markaziy ilmiy-tadqiqot Geologiya-qidiruv instituti (SNIGRI) qimmatbaho metallar konlarini, jumladan platina guruhi metallarini prognozlash va izlashni kompleks mineralogik, izotop-geokimyoviy va termobarogeokimyoviy mezonlar asosida modellarini ishlab chiqish tadqiqotlarini olib borgan. Federal Davlat budget muassasasi "N.M. Fedorovskiy nomidagi Butunrossiya mineral xomashyo ilmiy-tadqiqot instituti" (FDBM "VIMS") Rossiya va dunyodagi platinoid resurslarini baholash bo'yicha tadqiqotlar olib boradi, ularning qiyosiy tahlilini o'tkazgan.

Oxirgi o'n yillikda chet elning ko'plab oltin va temir ma'dani mintaqalarida: Rossiya Federatsiyasi (Sibirning fanerozoy burmalangan kamarlarida, Yakutiya, Rossiyaning shimoli-sharqida, Ural, Kursk magnit anomaliyasi), Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Kareliya, Finlyandiya, Polsha, Chexiya, Germaniya, Avstraliya, Afrika, AQSh, Kanada va Braziliyada kompleks oltin-platinoidli ma'danlashuv aniqlangan. Ular proterozoy va fanerozoyning riftogen strukturalarini burmalangan kamarlarida va tektonomagmatik faollashuv zonalaridagi (TMF) metasomatik temirli kvarsitlar, albititlar, kalishpatitlar, propilitlar, berezit-listvenitlar, argillizitlar, magnezial va ohakli skarnlarda sulfidli tomirli-kesishgan, kvars, kvars sulfidli tomir-xol-xolli, kvarsli, kvarssulfidli tomir-shtokverkli, xol-xolli sulfid-tellurli kon turlari bilan ifodalanadi.

Hozirgi vaqtida platinoidlar bo'yicha xorijiy tadqiqotlar tobora ko'proq yangi kashfiyotlar olib kelmoqda. Xorijiy nashrlarning sharhi shuni ko'rsatadiki, ofiolitli va vulkanogen kamarlarda tarqalgan, uglerod-margimushli va vismut-telluridli geokimyoviy turlar, shuningdek mantiya-qobiq paleodiapirizmning faol namoyon bo'lish joylarida terrigen-vulkanogen botiqligidagi orogenik-riftogen turlar platinoidli boy kompleks ma'danlashuvga nisbatan istiqbollidir. Shu munosabat bilan

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha chet el tadqiqotlarini ko'rib chiqish quyidagi larga asoslanadi: <https://scholar.google.com/>, <https://www.elsevier.com/editor>, <https://ingeo.uz/>.

paleookeanlarni rivojlanishining dastlabki bosqichi qoldiqlari - ofiolit komplekslarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab xorijiy nashrlar mavjud.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Tyan-Shan orogen kamarining geologiyasi, geokimyosi, kompleks ma’danlashuvning hosil bo‘lishi va tarqalishi qonuniyatlarini o‘rganishga X.M. Abdullaev, I.X. Xamrabaev, R. Axundjanov, S.T. Badalov, X.A. Akbarov, Z.M. Abduazimova, A.K. Buxarin, E.B. Bertman, I.M. Golovanov, S.K. Smirnova, D.S. Mukimova, A.J. Juraev, G.Ye. Zavyalov, T.N. Dalimov, E.A. Dunin-Barkovskaya, Yu.B. Yejkov, P.F. Ivankin, I.V. Koroleva, R.X. Mirkamalov, N.I. Nazarova, M.M. Pirnazarov, Yu.S. Savchuk, M.K. Turapov, X.R. Raxmatullaev, M.N. Yuldashev, R.G. Yusupov, R.S. Xan, V.G. Xarin, V.D. Soy, M.U. Isoqov va boshqa ko‘plab tadqiqotchilar katta hissa qo‘shgan. Ularning tadqiqotlari ma’dan hosil bo‘lish nazariyasida va xususan, platinoidlarni o‘rganishdagi ma’lum yutuqlarga yordam bergen.

O‘zbekistonda mafit-ultramafit hosilalar PGMga nisbatan yaxshi o‘rganilgan. Ular ilmiy ishlar va ilmiy-tematik hisobotlarda o‘z aksini topgan (X.R. Raxmatullaev, R.G. Yusupov, M.N. Yuldashev, A.M. Musaev, E.E. Igamberdiev, A.B. Xolikov va boshqalar). Hozirgi vaqtida R. Axundjanov, U.D. Mamarozikov, B.S. Nurtaev Yu.B. Yejkov tomonidan bazit-ultrabazit komplekslarining turli jihatlari o‘rganilmoqda.

Tyan-Shan orogen kamarining platina tarkibini o‘rganish bo‘yicha erishilgan yutuqlarga qaramay O‘zbekiston platinoidlarining milliy mineral-xomashyo bazasini (MXB) yaratish bilan bog‘liq ko‘plab masalalar, shuningdek, MXB bilan bog‘liq an‘anaviy va noan‘anaviy ma’danlashuvni hosil bo‘lish sistematikasi, genezisi va ilmiy masalalari, ularning tarkibini o‘rganish, PGMning yangi manbalarini izlash, ularni yo‘ldosh komponent sifatida qazib olish texnologiyalari (kompleks ma’danlar, yonuvchi slaneslar, qora slanes tipidagi uran ma’danlari va boshqa konlardagi ma’danlardan), O‘zbekistonda PGM istiqbollarini geologik va iqtisodiy baholash, PGM istiqbolda o‘rganish yo‘l xaritasini (kompleks dastur) yaratish haligacha to‘liq yechilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari “Mineral resurslar instituti” va “H.M. Abdullaev nomidagi Geologiya va geofizika instituti” davlat muassasalari ilmiy tadqiqot rejalarining: “Oltin va boshqa ma’danlarga istiqbolli maydonlarni ajratish maqsadida Sulton-Uvays tog‘i oltinli metasomatitlarining tadqiqoti” (2000-2004), “Navoiy KMK aksiyadorlik jamiyati oltin konlarining ma’danli va asosiy oltin saqlovchi jinslarini bashoratli baholash bilan boshqa metallarni (noyob yer elementlari va volfram, niobiy, tantal, platina, palladiy, iridiy va boshqa nodir metallar) o‘rganish” (2023-2024) va “Qattiq foydali qazilmalar qatorida kam o‘rganilgan yoki aniqlanmagan noananaviy geologo-genetik turlarini tarqalishi, joylashish qonuniyatlarini o‘rganish, maydonlarini ajratish hamda bo‘lajak sanoat miqyosini baholash” (1996-2000) hamda xalqaro O‘zbek-Turk innovatsion granti “O‘zbekiston va Turkiya ofiolit komplekslarini qiyosiy tahlil qilish, mantiyada chuqur jarayonlar va ular bilan bog‘liq ma’danlarni shakllanishi” (2021-2022) loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi platina guruhi metallari (PGM) uchun O‘zbekiston Respublikasining mineral-xomashyo bazasini yaratishga qaratilgan ilmiy, texnologik

va geologiya qidiruv ishlarining yagona nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dunyo va O‘zbekistonda platinoidlarning geologik va boshqa o‘rganilganligi tadqiqotlarini tahlil qilish;

ma’lum endogen konlarda PGMning joylashuvi va magmatik jinslarning asosiy turlarida tarqalish qonuniyatlarini aniqlash, ma’danlarning moddiy tarkibini o‘rganish va tipomorfik xususiyatlarini aniqlash;

aniqlangan ma’danlashuv va konlarda PGMning istiqbolini baholash;

asosiy nazorat qiluvchi omillarini aniqlash bilan kompleks ma’danlashuvning hosil bo‘lish va tarqalish qonuniyatlarini aniqlash;

Tyan-Shan orogen kamarining mineragenik taksonlari uchun platinoidlarning metallogenik potensialini baholash.

Tadqiqot ob’ekti sifatida mafit-ultramafit hosilalar, ofiolit kamarlari, dunyo va O‘zbekistonning endogen magmatogen va kompleks platinali konlari, Tyan-Shan orogenik kamarining mintaqaviy ma’danli ob’ektlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti platina guruhi metallarini hosil bo‘lishi, tarqalishi va aniqlanish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqot ob’ektlarining geologo-geokimyoviy, mineralogik, petrografik va boshqa xususiyatlari hsoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda platinoidlar bo‘yicha nashr etilgan, fond va arxiv manbalarini tahlil qilish, formatsion tahlil usullari, mineralogik rayonlashtirish, dala tadqiqotlari, analitik tadqiqotlar, mineralogik-geokimyoviy va petrologik tadqiqotlar usullari, statistik va matematik usullar, kartografik ma’lumotlarni raqamlashtirish usullari, O‘zbekiston, VIMS, IMGRE (Rossiya), MTA (Turkiya) sertifikatlangan laboratoriylarida analitik usullaridan (probir tahlili, ISP-MS mass-spektrometr, optik-emission spektrometr, neytron-aktivatsion va rentgen lyuminessensiyasi tahlillari) foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

G‘arbiy Tyan-Shanning struktura-formatsion zonalarining chegara elementlari bo‘lgan va differensiatsiyalashgan massivlar shaklida PGMning birlamchi manbalarini ifodalovchi mintaqaviy chuqur darzliklar zonalari bilan chegaralangan yettita mafit-ultramafit kamarlar ajratilgan;

PGMning O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘yicha konlar va namoyonlar ma’dan-formatsion tipifikatsiyasi yaratilgan;

an’anaviy magmatik komplekslarda va noan’anaviy kompleks platina-metall konlarida PGMni tarqalish qonuniyatlarini va bashorat qilish me’zonlari aniqlangan;

O‘zbekistonning Sharqiy, G‘arbiy va Janubiy hududlarida PGMning shakllanishi uchun geologik sharoitlar mavjudligi va ularning istiqbollari ilmiy asoslangan;

PGM bo‘yicha Respublikaning mineral-xomashyo bazasini yaratish uchun PGM ob’ektlarini o‘rganish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

prognozlash va metallogenik tahlil uchun ma’dan hosil bo‘lish tipifikatsiyasi ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston hududi uchun PGMning bashorat-izlash mezonlari ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston hududida platinoidlarga istiqbolli maydonlar va pozitsiyalarning bashorat xaritasi yaratilgan;

PGM izlash uchun tadqiq qilish tartibi va ustuvorligi ko‘rsatilgan bashorat-istiqbolli maydonlar ajratilgan;

O‘zbekistonda an’anaviy va noan’anaviy turdagи platinoidlarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari va geologiya-qidiruv ishlari uchun yo‘l xaritasini (qisqa va uzoq muddatli) shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot va laboratoriya ishlarining natijalari zamonaviy tahlil usullaridan foydalangan holda olingan ma’lumotlarga, shuningdek amaldagi standartlarga muvofiq ishlaydigan laboratoriylar tomonidan taqdim etilgan natijalarga asoslanadi. Kompleks elementlar quyidagi analitik usullar yordamida aniqlandi: optik-emission spektrometr (OES), mass-spektrometr (ICP MS), elektron-zondli mikroanalizator (JXA-8800R Jeol), neytron-aktivatsion, oltinspektral, atom-absorbsion va boshqa sertifikatlangan laboratoriyalarda qo‘llaniladigan zamonaviy usullar.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari mantiyada sodir bo‘ladigan jarayonlarni va uning PGM ruda hosil bo‘lishidagi rolini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. PGMni hosil bo‘lish qonuniyatlarini va tarqalishining aniqlangan qonuniyatlarini, shuningdek, O‘zbekistonda an’anaviy va noan’anaviy PGMning birinchi kompleks tipifikatsiyasi qimmatbaho metallarning ma’dan shakllanishi nazariyasi uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati izlash geologiya-qidiruv ishlarini olib borishda bashorat-izlash ahamiyati bilan ifodalanadi, shuningdek, Sharqiy, G‘arbiy va Janubiy O‘zbekistonda PGM istiqbolini baholashda va milliy MXB yaratishga yo‘naltirilgan birinchi navbatdagi istiqbolli maydonlarni va pozitsiyalarni baholash ahamiyatiga ega.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Platina guruhi metallarining ma’dan formatsion turlari, qidirish me’zonlari va mineral-xomashyo bazasini rivojlantirishning istiqbollarini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tadqiqotlar natijasida aniqlangan ma’danlashuv pozitsiyalari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 24-iyunidagi 08-1765-son ma’lumotnomasi). Natijalar Kospaktov (Ovminzatov tog‘lari) maydonida qimmatbaho metallarni (PGM, oltin) izlash uchun geologiya qidiruv ishlarini olib borishga asos bo‘lgan;

Sharqiy O‘zbekistondagi qayd etilgan PGM yuqori miqdorlari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 24-iyunidagi 08-1765-son ma’lumotnomasi). Natijada Quysisariko‘l, Kandir, Yangiobod, Yusuptosh kabi yangi istiqbolli maydonlarda izlash hamda Tekeli-Maygashkan, Ayg‘irbaytal-Oqtepa, Olmaliq va Bobosilten-Qashqasoy yangi maydonlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun ilmiy asos yaratilgan;

G‘arbiy O‘zbekistondagi ob’ektlarda PGM minerallashuvi bo‘yicha olingan ma’lumotlar “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 24-iyunidagi 08-1765-son ma’lumotnomasi). Natijada G‘arbiy O‘zbekiston bo‘yicha birinchi navbatdagi obektlarga Muruntov oltin va Kosmanachi kumush konlarini, shuningdek Kospaktov,

Peschanoe-Joldas, Teskuduk-Chengeldi va Sentobsoy massivini kiritish imkonini bergen;

Janubiy O‘zbekiston bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 24-iyunidagi 08-1765-son ma’lumotnomasi). Natijalar Xondiza polimetal koni (uning qanotlari), Janubiy Qorason, Chakchar, Qo‘ldara, Obizarang-Machitli, Novdaroz, Qorakon, Qorasuv (Au), Chinorsoy, Xo‘jadiq, Sariko‘l (W), Og‘alik-Mironko‘l (W), Iral, G‘arbiy So‘latsoy (REE), Mamik, Duxona (Cu) va boshqalarda PGMni o‘rganishga asos bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotlari natijalari 11 xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 42 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsija etilgan nashrlarda 17 ta maqola, shu jumladan, respublika nashrlarida 15 ta va xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 195 bet, 47 ta jadval, 34 ta rasmdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbliligi va zarurati, maqsad va vazifalari, ob’ekti va predmeti asoslangan, tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilib, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy ahamiyati va tahlillar natijalarini amaliyotga joriy qilinishi izohlangan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi “Dunyo va O‘zbekistonda PGMning o‘rganilganligi” 6 bo‘limdan iborat. Platina guruhi metallari (PGM) – ruteniy (Ru), rodiy (Rh), palladiy (Pd), osmiy (Os), iridiy (Ir) va platinaning (Pt) fizik–kimyoviy xususiyatlari ta’kidlangan.

2024-yilda dunyoda jami 180 tonna platina va 210 tonna palladiy qazib olingan. PGMning asosiy iste’molchilari Yevropa, Yaponiya, Shimoliy Amerika, Xitoy, Hindiston va boshqalar. PGM asosan avtokatalizatorlar Pt – 97,2 t, Pd – 216,8 t, zargarlik sanoati Pt – 85,2 t, Pd – 12,1 t va sanoatning boshqa sohalarida Pt – 55,7 t, Pd – 68,3 t (kimyo, shisha, elektrotexnika, neftni qayta ishlash va boshqalar), shuningdek investitsiyalar sifatida Pt – 23,8 t, Pd – 23 t ishlatiladi.

Avtokatalizatorlarga qat’iy ekologik talablar sabab avtomobilsozlik sanoatining PGMga bo‘lgan talabini oshiradi. Platina va palladiy ishlab chiqarish boshqa platina guruhi metallariga qaraganda ancha katta. Eng yirik ishlab chiqaruvchi mamlakatlar Janubiy Afrika va Rossiya bo‘lib, ular birgalikda 2024-yilda platina va palladiy ishlab chiqarishning 80% ga yaqinini tashkil etdi.

Dunyodagi PGM zaxiralarining asosiy egalari Janubiy Afrika (Bushveld magmatik kompleksining kam sulfidli platinametall konlari: Merenskiy rif (Merensky

Reef-MR), UG-2 qatlaming xromitit gorizonti (Upper Group-2) va Platreef (Platreef-PR) (dunyoda ishlab chiqariladigan Pt 75% va Pd 40%ni bozorga yetkazib beradi), Rossiya (Nijniy Tagil, Kachkanar, Gusevgorskoe, Norilsk va boshqalar), AQSh (Stilluoter (rif J-M)), Zimbabve (Buyuk Dayka), Kanada (Sadberi) va hokazo.

O‘zbekistonda platinaning birinchi topilmasi 1912-yilda sanoatchi A. Andreev tomonidan topilgan. Sof tug‘ma platina Beldersoy bo‘ylab (Chotqol tizmasining Shimoliy yonbag‘ri) olingan shlixdan ajratilgan. 1943-yilda kon qidiruvchilar Chotqal tizmasining Janubiy yonbag‘ridagi Daryo bo‘yidagi konlardan platina va osmiyli iridiyni ajratib olishdi. 1946-yilda P. Konovalov Kosonsov delyuvviyidagi kinovar va oltin bilan birgalikda kelgan sof tug‘ma platinani aniqladi. Teskuduk-Chengeldi (Shimoliy Tomditov) serpentinitli-gabbro-piroksenit massivining xromit rudalarida, shuningdek Sulton-Uvays tog‘larida birinchi sof tug‘ma palladiyli platina (2 dona), Quljuqtov tog‘larida o‘zgarmagan va grafitlashgan gabbrolarda platinoidlarni pirrotin va boshqa sulfidlar bilan birgalikda I.X. Xamrabaev va b. (1962), K.M. Kromskaya va V.V. Baranov (1964) tomonidan topilgan.

1991-yildan beri “Olmaliq KMK” AJ massa ulushi 70-80% kukunda palladiyni qisman ajratib oladi. Palladiy qazib olish yiliga 50 kg, 2025-yildan boshlab yiliga 50 kg gacha platina qazib olish rejalashtirilgan. Palladiy “Navoiy KMK” AJ tomonidan tozalangan kukun shaklida olinadi (oyiga 200 grammdan ortiq).

Hozirgi vaqtida PGMni aniqlashning eng samarali analitik usuli ICP-MS induktiv bog‘langan plazma mass-spektrometriya usuli, palladiyni aniqlash chegarasi 0,001 g/t bo‘lib, 2022-yilda MRIda dissertant tashabbusi bilan sotib olingan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobি “G‘arbiy Tyan-Shanning mafit-ultramafit hosilalari va ularning platinadorligi” O‘zbekistonda jahon resurslari, zaxiralari va PGMni ishlab chiqarishning asosiy qismi bilan bog‘liq bo‘lgan magmatik hosilalarning tarqalish shart-sharoitlari va magmatik hosilalar turlarining ma’danlashuvini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Quyidagi mafit-ultramafit va mafit kamarlari ajratiladi: Bukantov, Kokpatas-Oqjetpes, Turkiston-Oloy, Zarafshon-Turkiston, Zarafshon-Oloy, Janubiy-Hisor va Beltov-Qurama (1-rasm).


Bukantov mafit-ultramafit kamari (MUK) Bukantov tog‘larida joylashgan va uning markaziy qismini egallaydi. Kamar Bukantov-Janubiyfarg‘ona chuqur darzligining Shimoliy qanoti bilan cheklangan. Uzunligi 160 km, qalinligi 5-10 dan 15 km gacha.

MUKni tashkil etuvchi tokembriy va paleozoy metamorfik hosilalari juda kuchli deformatsiyalangan, bu esa jinslarning stratigrafik yoshini aniqlashni qiyinlashtiradi. Kamarning g‘arbida (Baymen uchastkasi) va sharqiy (Jetimtog‘ II) qismi tokembriyga (R_3 ?) tegishli qumbuloq svitasi jinslaridan iborat. MUK shuningdek, ishqoriy-olivin-bazalt tarkibidagi vulkanitlardan (Kulquduq va Tubobergan svitalar) yastangan. Mafit-ultramafit jinslar Baymen, Kangashar, Kulquduq, Irlir, Jusquduq, Jetimtov II, Kiyiktov va boshqa uchastkalarda uchraydi.

Kokpatas-Oqjetpes MUK Kokpatas darzlik zonasini bilan chegaralangan (A.K.Buxarin va b., 1969, 1979) va Oqjetpes-Kokpatas-Bo‘ztov liniyasi bo‘ylab shimoli-g‘arbiy yo‘nalishda tor kamar (5-10 km) shaklida kuzatiladigan alohida tarkibiy va shakllanish bo‘linmasi (subzona) sifatida ajralib turadi. U devon va

toshko‘mir davrining cho‘kindi va vulkanogen shakllanishining o‘ziga xos to‘plami bilan tavsiflanadi.

Turkiston-Oloy MUK Qizilqum-Farg‘ona yoki Markaziy Qizilqum - Janubiy Farg‘ona deb ham ataladi (Xamrabaev va b., 1964), Janubiy Tyan-Shan paleozoidining tektonik elementlaridan eng muhimi bo‘lgan Bukantov-Janubiy Farg‘ona chuqur yoriqlar tizimi bilan chegaralangan bo‘lib, Janubiy Tyan-Shanni O‘rta Tyan-Shandan ajratib turadi (V.F.Popov, 1964; V.G.Garkoves va b., 1979).



1-rasm. O‘zbekiston hududining mafit-ultramafit va mafit kamarlarining sxematik xaritasi. 1 - mezzozygacha bo‘lgan hosilalar; 2 - O‘rta (A) va Janubiy (B) Tyan-Shan chegarasi; 3 - mafit-ultramafit kamarlari (MUK): B - Bukantov, KO - Kokpatas-Oqjetpes, TO - Turkiston-Oloy, ZT - Zarafshon-Turkiston, ZO - Zarafshon-Oloy, JH - Janubiy-Hisor, mafit kamari (MK): BQ - Beltov-Qurama; 4 - platinoidlarning an‘anaviy turlari bilan asos va ultrabazik tarkibdagi intruziv massivlar namoyon bo‘ladigan chuqur yoriqlar zonalari (geologik pozitsiyalar).

Kamarni Sulton-Uvaysdan Farg‘ona tizmasigacha subkenglik yo‘nalishda kuzatish mumkin. Uning Sharqiy davomi Atbashi kamariga qadar 500 km ga cho‘zilgan Xon-Tengri muzliklarigacha. Strukturaviy nuqtai nazardan ular umumiy uzunligi 2000 km dan ortiq bo‘lgan yagona Janubiy Tyanshan ofiolit kamarini hosil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida u Farg‘ona depressiyasining janubiy chegarasini, Turkiston va Shimoliy Nurota tizmalarining shimoliy etaklarini va Shimoliy Tamditov va Sulton-Uvaysning katta qismini qamrab oladi.

Zarafshon-Turkiston MUK Janubiy Tyan-Shanda o‘zak hisoblanadi, 1000 km masofada uzlusiz kuzatiladi. Shimoldan Turkiston-Oloy MUK, janubdan Quljuqtov-Zirabuloq-Qoratepa MUK (Janubiy-Ovminzatov va Zarafshon chuqur yoriqlari bo‘ylab) bilan chegaradosh. Kamar Molguzar tog‘larini, Turkiston tizmasining g‘arbiy uchini, Shimoliy Nurota tizmasining ko‘p qismini, Janubiy Nurota tizmasini va Qizilqum tog‘larini qamrab oladi: Sangruntov (janubiy qismi), Aristantov,

Tomditov (janubiy yarmi), Ovminzatov va Beltov. Sharqiy yo‘nalishda u Tojikiston va Qirg‘izistonga, g‘arbiy yo‘nalishda Ural-Tyanshan ko‘ndalang yorig‘igacha cho‘zilgan, shundan so‘ng Ural-Tyanshan kamarining yagona Mugodjara-Oloy zonasini tashkil etuvchi Mugodjara va Ural-Tobolsk zonalariga o‘tishi kuzatilgan.

Zarafshon-Oloy MUK Quljuqtov-Zirabuloq-Qoratepa (I.X.Xamrabaev, A.A.Musaev, G.G.Lixoydov, V.V.Baranov) nomi bilan ham tanilgan bo‘lib 500 km masofaga cho‘zilgan. U Quljuqtov tog‘larini, Janubiy Nurataning janubiy chekkasini va Zirabuloq-Ziyovuddin va Qoratepa tog‘larining shimoliy yon bag‘irlarini qamrab oladi. Platina va palladiyning doimiy ravishda Klark qiymatidan yuqori miqdori bilan tavsiflanadi.

Janubiy-Hisor MUK Hisor tizmasining g‘arbiy uchi janubiy yarmining ochiq qismini, shuningdek, 150 km dan ortiq masofaga cho‘zilgan Machitli va Yakkabog‘ tog‘larini qamrab oladi. Geologik va geofizik ma’lumotlarga ko‘ra, uni shimoli-g‘arbiy yo‘nalishda meozozoy-kaynozoy cho‘kindilarining qalin qopqog‘i ostida Buxoro bosqichi (B.B.Tal-Virskiy, 1964) orqali Ural-Tyanshan yorig‘igacha kuzatish mumkin. Uning asosiy qismi Tojikistonda joylashgan bo‘lib, u yerda kamarning sharqiy davomi G‘arbiy Qorateginda, Obixingou va Surxob daryolarining qo‘shilishigacha davom etadi. Kamarni Shimoliy- va Janubiy-Hisor juftlashgan chuqur yoriqlar kamarlari cheklab turadi.

Hisor-Baysun yorig‘i zonasida joylashgan ultrabazitlar va gabbroid kamarlar gabbro-peridotit, peridotit-piroksenit, gabbro-diabaz va gabbro-plagiogranit hosilalariga tegishli (V.V.Baranov va b., 1972). Eng katta tanalar – Kundajuvoz va Zaxcha tektonik kontaktli linzasimon shaklga ega.

Beltov-Qurama mafit kamari (MK) birinchi marta V.G.Garkoves (1964) tomonidan aniqlangan, O‘rtal Tyan-Shanning Beltov-Qurama zonasiga hamohang va Qizilqum regionida meozozoy-kaynozoy yotqiziqlari ostida butunlay yashiringan.

G‘arbiy Tyan-Shanda mafit-ultramafit magmatizmining namoyon bo‘lishi juda xilma-xildir. Ular differensirlashgan massivlar va kichik tanalar (Zarafshon-Turkiston (Tasquduq-Chengeldi, Tebinbuloq, Jamansoy, Sentyab va boshqalar), Zarafshon-Oloy (Beltov, Shaydaraz va boshqalar) va Beltov-Qurama (Alichaliq, Oqtepa va boshqalar)) shaklida namoyon bo‘ladi. Ko‘pgina hollarda, ular magmatik differensiatsiyaning turli xil qoldiqlari bilan “tektonik siqilmalar” va “paketlar” shaklini oladi. Mafit-ultramafit hosilalarning asosiy xususiyati ularning G‘arbiy Tyan-Shanning tarkibiy va shakllanish zonalarining chegara elementlari bo‘lgan mintaqaviy chuqur yoriqlar zonalariga yaqinlidir.

Differensial massivlarda platinoidlarning foni Klarkdan 2-3 baravar yuqori, bunda palladiy har doim platinadan ustun turadi.

G‘arbiy Tyan-Shanning mafit-ultramafit jinslari bilan tarkibida PGM konsentratsiyasi yuqori bo‘lgan titanomagnetit, xromit, ilmenit-titanomagnetit, sulfid-mis-nikel va sulfid mineralizatsiyasi genetik jihatdan bog‘liq.

Uchinchli bob “**PGM ob’ektlarining sistematikasi: o‘z konlari hamda dunyo va O‘zbekistonning kompleks platinama’danli formatsiyasi**”. O‘zbekiston PGM endogen konlarining ruda hosil bo‘lish tipifikatsiyasi va namoyon bo‘lishi. Dunyo PGM konlarini tizimlashtirish bilan quyidagi tadqiqotchilar shug‘ullangan: N.K. Visoskiy, A.N. Zavariskiy, A.G. Betextin, V.N. Zverev, O.Y. Zvyaginsev,

M.N. Godlevskiy, F.I. Volkson, L.V. Razin, D.V. Polferov, A.D. Genkin, A.P. Lixachev, O.Y. Yushko-Zaxarova, D.A. Dodin, N.M. Chernishov, A.Dj. Naldrett, L.S. Kabri, Cahit Dönmez va b.

O‘zbekiston Respublikasi PGM namoyonlarini tizimlashtirish bilan X.R. Raxmatullaev, M.M. Mansurov, Y.V. Mixaylova, A.M. Musaev, S.K. Smirnova, M.N. Yuldashev va boshqalar shug‘ullanishgan.

PGM konlarini tipifikatsiya qilish bo‘yicha xorijiy tajribani, shuningdek, o‘zbek geologlarining ishlarini o‘zimiz tarafdan bajarilgan tadqiqotlar prizmasi orqali geologik formatsiyalarda PGM miqdorini tarqalishi (tug‘ jinslarida), metasomatitlarda, har xil assotsiatsiyalarda, respublikaning endogen ma’dan konlari minerallari va ma’danlarida o‘rganish to‘rtta yirik ma’dan formatsiyalarni ajratish imkonini berdi: o‘z platinoma’danli, platinoma’danli, platinotarkibli (ikki kichik guruhga bo‘linadi: A - aslmetalli, B - aslmetaltarkibli) va boshqa noananaviy platinotarkibli turlar.

Ularning tarkibida mahsuldor ma‘danlarning batafsil geologik, genetik, mineral va geokimyoviy xususiyatlari bilan 27 ta yetakchi platinali ma‘dan shakllanishi, shuningdek PGMDa potensial istiqbolli hosilalar (sochma konlar, texnogen jinslar, nurash qobig‘i mahsulotlari va boshqalar) aniqlandi. Barcha saralash birliklari O‘zbekiston konlari va namoyonlari misollari, shuningdek, ma‘danlarning asosiy turlarining kutilayotgan sanoat ahamiyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan tasdiqlangan (1-jadval).

Dunyoda PGMning asosiy zaxiralari va ishlab chiqarilishi bo‘yicha an’anaviy bo‘lgan magmatogen titanomagnetit, mis-nikel va xromit ma‘danlari O‘zbekiston hududining geologik tuzilishini o‘ziga xos xususiyatlari tufayli kashf etilishi uchun cheklangan shart-sharoitlarga ega. Turli konlarda va namoyonlarda platinoidlarning yetakchi minerallarga nisbatan (Au, Ag, Cu, W, Pb-Zn, Li va b.) sanoatga yaqin konsentratsiyasi bo‘ysunuvchi ahamiyatga ega va iqtisodiyotga foydali ta’sir ko‘rsatadigan foydali qo‘shimcha komponentlar sifatida ma‘danlardan ajratib olinishi mumkin.

O‘z platinoma’danli formatsiyasining an’anaviy magmatogen konlari (Tebinbuloq koni, Beltov namoyoni va b.). Tebinbuloq koni (platinotarkibli titanomagnetit formatsiyasi) nafaqat Sultonuvays tog‘lari uchun, balki G‘arbiy Tyan-Shan gabbroidei orasida ham o‘ziga xos hisoblanadi. Kompleks o‘zlashtirish nuqtai nazaridan ma‘lum qiziqish uyg‘otadigan massiv bilan genetik jihatdan titanomagnetit, PGM, Au, V, Sc, va Cu ma‘danlashuvlari genetik bog‘liq. Ularning intensivligi gidrotermal platina-oltin-sulfid minerallashuvi pozitsiyalarida ortadi, oltin va PGM miqdori mos ravishda 0,5 va 3,8 g/t ga etadi.

Beltov namoyoni (Quljuqtov tog‘lari) peridotit-gabbro massivlaridagi (C_{2-3}) magmatik likvatsion geologo-genetik turdagilari konlarning vakili hisoblanadi. Likvatsion sulfid-mis-nikel namoyonida xol-xolli ba’zida massiv ma‘danlar kompleks xarakterga ega va nikel kobalt, misdan tashqari yana oltin, kumush, PGM (Pt, Pd, Rh), selen, tellur va b. (V.V. Baranov, K.M. Kromskaya, Yu.F. Baskakov) sanoat ahamiyatiga ega.

Platinoid konsentratsiyasining oshishi gidrotermal o‘zgargan, grafitlashgan gabbro hududlarida aniqlangan. PGMDan platina, palladiy va rodiy aniqlangan. Ular sulfidlarning ko‘payishiga bog‘liq. Sulfid konsentratlaridagi (pirotit + pentlandit +

xalkopirit + gersdorfit+arsenopirit+pirit+violarit) PGM miqdori 2 g/t ga yetadi; platina 0,01 dan 0,5 g/t gacha, kamdan-kam namunalarda 2 g/t gacha; palladiy – 0,5 g/t dan kamroq. Platinoidlarning shunga o‘xhash miqdorlari boshqa konlardagi misnikel ma’danining sulfidlarida qayd etilgan: Sadberi (Kanada) – 1,5–2,0 g/t gacha, Ringerik (Norvegiya) – 2,5 g/t.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi potensial platinatarkibli ma’dan formatsiyasi tipifikatsiyasi

(X.R. Raxmatullaev, N.P. Yermolaev, V.V. Kozlov, A.G. Luzanovskiy, M.M. Mansurov, Y.V. Mixaylova, A.I. Obrazsov, Y.I. Paramonov, X.R. Raxmatullaev, S.K. Smirnova, T.S. Timofeeva, R.G. Yusupov, M.N. Yuldashev, E. Igamberdiev, A.B. Xolikov va b. ma’lumotlaridan foydalanib A.B. Xolikov tomonidan tuzildi)


Guruh (kichik guruh), ma’dan formatsiyasi	Asosiy ma’dan turlarining kutilayotgan sanoat ahamiyati	Konlar, ma’danlashuvlarga misollar
An’anaviy		
I. O‘z platinoma’danli		
1. Magmatogen	Qo’shimcha komponent sifatida	Tebinbulloq titanomagnetit va Taskazgan grafit sulfid-mis-nikel konlari (Beltau)
2. Xromitli	Platina-xromit bilan birga	G‘arbiy Tamditau (Tesquduq-Chengeldi) va boshqalar, Sentyab cho‘qqilari (Shimoliy Nuratau), Beltau va boshqalar (Kuldjuktau), markaziy mafik-ultramafik kamar (Sultanuvays) va b.
Noan’anaviy		
II. Platinoma’danli (kompleks)		
1. Uglerod-oltin-platinoma’danli	Asosiy ahamiyati platinoidlar, shu jumladan selektiv UV konsentratlari yoki uglerodli moddalar bilan boyitilgan rudalarda oltin bilan birga kelgan (antraksolit, grafit va b.)	Muruntau, Besapan, Kosmanachi, Amantaytau, Kokpatas, Kospaktau, Oqjetpes va b.
III. Platinotarkibli (kompleks) Kichik guruhi A. Aslmetalli		
1. (Oltin)-grafitli	Platinotarkibli grafit bilan birga	Taskazgan, Muruntau, SG-10
2. (Kamyob metalli)-oltin-kvarsli	Platinotarkibli oltin-kvars bilan birga	Muruntau, Myutenbay, Turbay, Zarmitan, Oltinqazgan
3. Sulfid-(mýshyak)-oltinma’danli	Platinotarkibli oltin-sulfid bilan birga	Karashaxo, Yujniy I, Amantaytov, Daugiztov
4. Oltin-(sulfid)-kvarsli	Platinotarkibli oltin-kvars bilan birga	Sarmich, Qoraqo‘ton (Ziyovuddin tog‘lari), Qizilolma, Kochbuloq, Marjonbulloq
5. Sulfid-kumushma’danli	Platinotarkibli kumush-karbonat-kvarsli bilan ekvivalent (?)	Oqtepa
6. Kumush-polimetalli	Platinotarkibli kumush-polimetalli bilan birga	Lashkerek
7. Kumush-oltin-kvarsli	Platinotarkibli zolotokvarsli qo’shimcha tarzda	Guzaksay, Pirmirab, Revashte (?)
8. (Oltin)-kumush-kvarsli	Platinotarkibli (oltin)-kumush-kvarsli bilan	Kosmanachi, Nukrakon, Oqjetpes

Guruh (kichik guruh), ma'dan formatsiyasi	Asosiy ma'dan turlarining kutilayotgan sanoat ahamiyati	Konlar, ma'danlashuvlarga misollar
	birga	
Kichik guruh B. Aslmetalltarkibli		
1. Skarn-volfram ma'danli	Ayrim konsentratlardan platinoidlarni qo'shimcha tarzda ajratib olish imkoniyati	Lyangar, Ingichka, Qo'ytosh, Saritov, Sautbay
2. Skarn-temir ma'danli	Qo'shimcha platinotarkibli (?) skarn-temirma'danli	Syurenata
3. Oltin-platinoid-mis-porfirli	Qo'shimcha platinotarkibli (?) skarn-temirma'danli	Olmaliq guruhi konlari (Qaomoqir, Yoshlik I, II, Sari-Cho'qqi, Qizota)
4. (Rux)-mis-kolchedanli	Mis-pirit rudalari konsentratlaridan platinoidlarni qo'shimcha ajratib olish mumkin	Qoramurun, Zengebobo, Shayxjoyli (Sultonuvays tog'lari)
5. Polimetal-kolchedanli	Polimetal kolchedan rudalardan va aayrim konsentratlardan platinoidlarni qo'shimcha ajratib olish	Xandiza, Chakchar, Janubiy Qorason, Chinorsoy va b.
6. Kumush-kvarsli	Platinoidlarni ehtimoliy (?) qo'shimcha ajratib olish	Serebryanoe, G'arbiy Turbay
7. Oltin-(simob)-argillizitli	Platinoidlarning past konsentratsiyasining minerallar va assotsiatsiyalarda tarqalishi yetarlicha o'rganilmagan	Akba, Akata
8. Surma-kvarsli		Sentralnoe, Akbel
9. Simob-kalsitli		Yubileynoe, Karasu
10. Stratiform mis-qumtoshli	Misli ruda konsentratlaridan platinoidlarni qo'shimcha tarzda ajratib olish imkoniyati	Mamik, Duxona
11. Metamorfogen misma'danli formatsiya - mis-kamyobmetalli ma'danlashuv		Koktov
IV. Boshqa noan'anaviy platinotarkibli turlar		
1. Litiyli	Platinoidlarni qo'shimcha tarzda ajratib olish ehtimoli	Shavazsoy
2. Yonuvchi slaneslar		Sangruntov
3. Sochma konlar	PGM ning tarqalish ehtimoli	Sultonuvays, Ovminzatov, Shimoliy Nurota ultramafitlarining yemirilish qobig'i
4. Texnogen	PGM va oltinni ajratib olish ehtimoli	Misni qayta ishlash zavodining ayrim shlaklari va OKMK va NKMK gidrometallurgik zavodlarining chiqindixonalari
5. Temirma'danli konlar, temirli kvarsitlar, marganes, fosforit, kaliy tuzi, uran, boksit konlari, har xil tarkibli mezozoy yotqiziqlari, yemirilish qobig'i, uglevodorodlar (neft, bitum) va b.	Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni talab etadi	Respublikadagi mavjud konlar (Temirkon, Syurenota (Fe), Dautash, Taxtaqoracha (Mn), Dehqonobod (K), Djeroy-Sardara (fosforit), Jantuar, Koscheka, Ma'danli (U)) va b.

O‘z platinoma’danli formatsiyasining anan’aviy xromitli konlari (Ashebuloq, Dushebuloq, Kokrali, Teskuduk-Chingeldi, Sentyabsoy ma’danlashuvlari). Dunyoda va O‘zbekistonda platinotarkibli ob’ektlarining tarqalish faktorlari, tuzilishi va moddiy tarkibi o‘rganildi. Ashebuloq, Dushebuloq, Kokrali va boshqa ma’danlashuvlar Sultonuvays tog‘i markaziy mafit-ultramafit kamarida joylashgan bo‘lib uzunligi 40 km dan ortiq va qalinligi 8-10 km (2-rasm). Uning tarkibiga uch turdagи tog‘ jinslari kiradi: 1) serpentinitlar, 2) amfibolitlar va gabbro-amfibolitlar, 3) plagiogranitlar.

Rodingitlarda (Ashenintov atrofi) oltin miqdori 1,44 g/t, platina – 0,012 g/t, palladiy – 0,047 g/t, Sb – 0,15% va Cd – 0,00032% ga yetadi (A.B. Xolikov, 2007).

Tesquduq-Chengeldi xromit namoyoni gabbro-piroksenit-serpentenitlarda (PR) joylashgan.



2-rasm. Sulton-Uvays qulay geologik holatining platinodorligi. 1 – mezozoygacha bo‘lgan fundament; 2 – asos (gabbro va b.) va ultraasos (peridotitlar va b.) intruziv massivlari va tanalari (a – aniqlangan, b – taxminiy); 3 – apoeffuziv amfibolitlar, diabazli porfiritlar va b. tarqalish zonalari (a – aniqlangan, b – taxminiy); 4 – granitoid intruziv massivlari; 5 – darzliklar; 6 – platinoidlarning tarqalishi uchun qulay holatlarning chegarasi; 7 – Sultonuizdag o‘rta massivining taxminiy chegarasi; 8 – platinoidlar va boshqa hamroh metallarning namoyonlari (a), apoeffuziv amfibolitlarda, diabazli porfiritlarda sulfidli mineralashuvlar (b), istiqbolli maydonlar: A – Ashebuloq, D – Dushebuloq, K – Kokrali, T – Tebinbuloq, Z – Zangibobo, Sh – Shayxjoyli.

Tesquduq-Chengeldi massivining shimoli-g‘arbiy qismida sulfid konsentratlarida yuqori miqdordagi oltin (9,3 g/t), shuningdek, PGM (Pt, Pd, Ru, Os) 5,07 g/t gacha miqdorda aniqlandi.

Sulfidlarning miqdori massivning periferik qismidan markazgacha ko‘payib boradi: serpentinitlar → peridotitlar → dunitlar → gabbro, gabbro-amfibolitlar. Yuqoridagi tadqiqotlarga ko‘ra, sulfid mineralallari (pirrotin, xalkopirit, pentlandit va

zigenit) PGMning asosiy jamlovchilari, xromit va magnetit esa tashuvchilaridir. PGM miqdori Rossiya, Turkiya va Karpat bazitlaridagi miqdori bilan taqqoslanadi.

Sentyabsoy intruziv massivi (3,6 kvadrat kilometr) Shimoliy Nurota tog‘larining Shimoliy yonbag‘rida, Ustuk intruzividan Sharqda joylashgan. Birinchi marta serpentinitning yuzaga chiqqan qismi yaqinidan uncha katta bo‘limgan (15x0,5 m) shlirsimon xromit tanalari topildi. Serpentinitlar orasidagi xromitlarda PGM (Pt, Pd, Ru, Os) miqdori 4,19 g/t ni tashkil etdi. Bundan tashqari, yuqori miqdordagi xrom (2%) va nikel (0,3%) miqdori kompleks ma’danlashuv sifatida qiziqish uyg‘otadi.

